

ISBN: 978-93-25942-45-8

ZULFIYAXONIM – SADOQAT VA MATONAT TIMSOLI USLUBIY QO‘LLANMA



**A.N.ASKAROVA,
Z.A.TURSUNOVA**



Published by
Novateur Publication
466, Sadashiv Peth, M.S.India-411030

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI SOG‘LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI**

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

**ZULFIYAXONIM – SADOQAT VA MATONAT
TIMSOLI**

USLUBIY QO‘LLANMA

A.N.ASKAROVA, Z.A.TURSUNOVA



ANNOTATSIYA

Ushbu uslubiy qo'llanmada o'zbek taniqli shoirasi Zulfiyaxonim Isroilovanning hayot yo'li, mashaqqatlari va shu hayot sinovlariga qaramasdan doimo olg'a qadam bosgani va izlanishdan to'xtamagani haqida so'z boradi. Shoirani ijodidagi asosiy mavzular haqida fikr yuritilib, she'riy misralar bilan dalillangan. Shuningdek, ushbu oqila ayolning o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissi va uning asarlaridagi o'ziga xoslik yoritib berilgan.

Tuzuvchi mualliflar: Toshkent tibbiyot akademiyasi "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Askarova Nargiza Abdivalieva, Tursunova Zebunniso Avazbek qizi

Taqrizchilar: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Umumiy psixologiya" kafedrasida psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b D.Z.Jo'rakulova

TTA, Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi M.T.Axmedova

KIRISH

Ma'lumki, ayolning jamiyatdagi o'rni beqiyosdir. Ayol haqida so'z yuritar ekanmiz, ayol, avvalombor, onadir. Uzoq va yaqin tariximizdan ma'lumki, tarix zarvaraqlarida buyuk iz qoldirgan ota-bobolarimiz, olim-u ulamolarning onalari ham o'z zamonasining ma'rifatli va yuqori saviyali ayollaridan bo'lishgan. Shuningdek, agar yaqin o'tmishga nazar solsak, urush yillarida o'zining irodasi, matonati va mehnatkashligi bilan jamiyat hayotida muhim o'rin tutgan ayollarga ham ko'plab misollar keltirish mumkin. Xususan, o'zbek she'riyatida ham o'z o'rniga, o'z ovozigacha ega shoirlar ham salmoqli o'rin tutadi. Zulfiyaxonim shunday o'zbek ayollarining yorqin timsolidir.

O'ziga xos ovozi, uslubi, hayotdagi voqeliklarga haqqoniy baho bera olishi, samimiylilik va badiiy jozibadorlik uning she'rlariga barhayotlik baxsh etgan desak, yanglishmaymiz. Zulfiya o'z davrining iste'dodli shori Hamid Olimjon bilan turmush quradi. U Zulfiya uchun turmush o'rtog'i, do'stgina emas, balki uning ijodiy taqdirida mislsiz ahamiyatga ega siymo ham bo'ldi.

Deydilarki, seni ko'rganda
Ko'zlarimda yonar jonli o't,
O'sha o'tning yolqinlarida
Sendan o'zga bor narsa unut.

Birga kechirgan qisqa hayotlari davomida ular chin muhabbatni, baxtni his qiladilar. Turmush o'rtog'ining vafotidan so'ng shoira ijodida sog'inch, hijron mavzusi yetakchilik qiladi. Ammo shoira hayotning bu sinovi qarshisida dovdirab qolmadi, farzandlari uchun o'zida jasorat topib, oyoqqa turdi, yolg'izlikning achchiq azoblariga dosh berib, chinakam sadoqat timsoliga aylandi.

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,
Hech kimda ko'rmayin umrimga o'xshash:
Suydim,
Erkalandim,
Ayrildim,
Kuydim,

Izzat nima - bildim.

Shu-da bir yashash!

Zulfiyaxonimning yuqoridagi she'riini o'qir ekanmiz, uning turmush o'rtog'iga bo'lgan muhabbati qanchalik yuksak bo'lganini va uning o'limidan qanchalar iztirob chekkanini his qilishimiz mumkin. Biroq turmush o'rtog'i bilan birga kechirgan qisqa umriga qaramasdan, uzoq yillar davomida oilasiga va umr yo'ldoshiga sadoqatini yo'qotmadi va Hamid Olimjonning ishlarini sabot bilan davom ettiradi. Bir umr o'z yoriga sadoqat bilan yashagan shoira "Hijron kunlarida", "O'rik gullaganda", "Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?", "Sensiz", "Izlayman" kabi she'rlarida Hamid Olimjonga bo'lgan cheksiz mehr-u sadoqatini, sof sevgisini ifoda etgan.

Zulfiyaxonim o'z she'riyati, hayot yo'li bilan o'zbek ayolining ma'naviy qiyofasini aks ettirgan, sadoqat va vafo kuychisiga aylangan xalqimizning atoqli shoirasidir. Zero, u xotin-qizlar istiqboli yo'lida kurashib kelgan jamoat arbobi, necha-necha qizning qo'lidan tutib, adabiyot dargohiga boshlab kelgan, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatgan mehribon, ammo talabchan ustoz, nozikta'b, zukko ayol, sadoqatli yor, mehribon ona edi. Zulfiyaxonim o'zining salmoqli ijod namunalari bilan adabiyot muhim o'rin tutish bilan birgalikda tarjimonlik bilan ham shug'ullangan, u chet el adiblari va shoirlari asarlarini o'z tilidagi jilosini yo'qotmagan holda o'zbek tiliga tarjima qildi va o'zbek o'quvchilarini ham bu asarlarni o'qish va zavqlanish imkonini berdi. Xususan, S. Pushkin, M. Yu. Lermontov. N. A. Nekrasov, M. Voqif, L. Ukrainka, M. Dilboziy, S. Kaputikyan, E. Ognetsvet, Mustay Karim, Amrita Pritam, Ye. Bagryana va boshqalarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Shuni alohida e'tirof etish kerakki, uning ko'plab asarlari ham chet va qardosh tillarga tarjima qilingan va xorijiy kitobsevarlar tomonidan e'tirof etilgan.

Zulfiyaning ijodiy faoliyoti hayotlik davridayoq yuksak baholangan. U Xalqaro Javaharlal Neru (1968), „Nilufar“ (1971) mukofotlari hamda Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti (1970) laureati, Bolgariyaning „Kirill va Mefodiy“ (1972) ordeniga sazovor bo'lgan.



Zulfiyaxonim Hindistonda.

Mustaqillik yillarida ibratli hayot kechirgan, keng ijtimoiy faoliyat olib borgan shoira Zulfiya betakror iste'dodi, Vatanga muhabbati, oliyjanob insoniy fazilatlari, xalqimizning ma'naviyatini yuksaltirishdagi xizmatlari uchun yuksak hurmat va e'zozga sazovor bo'ldi. O'zbekiston hukumati atoqli shoiraning madaniyatimiz taraqqiyotidagi katta xizmatlarini e'tiborga olib, 1999-yili Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etdi. Ardoqli shoira tavalludining O'zbekiston Resublikasining birinchi Prezidenti I.Karimovning 2014- yil 31-oktabrdagi qarori bilan keng ko'lamda nishonlandi va chinakam adabiyot bayrami bo'ldi (2). Zulfiyaxonim nomini abadiylashtirish, va kelajak avlodga yuksak namuna sifatida ko'rsatish uchun ta'sis etilgan Zulfiya nomidagi mukofot har yili maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida a'lo xulqi, zukkoligi, donoligi, tashabbuskorligi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari bilan alohida iste'dodini namoyon qilib ta'lim olayotgan, istiqlol g'oyalarini amalga oshirish yo'lida astoydil mehnat qilayotgan 25 yoshgacha bo'lgan iqtidorli qizlarga adabiyot, madaniyat, san'at, fan, ta'lim sohalaridagi alohida yutuqlari uchun beriladi.

2008-yil 1-mart kuni poytaxtimizda O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaning haykali ochildi. Birinchi Prezidentimizning munis va mehnatkash, hayotning har qanday suron va to'fonlari qarshisida o'zini yo'qotmay, sabr-toqat va shukronalik bilan yashaydigan o'zbek ayoli, o'zbek shoirasining timsoli aks etishi kerak, degan g'oyasi O'zbekiston xalq rassomi, haykaltarosh Ravshan Mirtojiev ishlagan haykalda to'la ifoda etilgan.

I. ZULFIYA ISROILOVANI HAYOTI VA IJODI

Zulfiya Isroilova — iste'dodli va o'zining alohida uslubi bilan ajralib turadigan o'zbek shoirasi. Zulfiya (1915—1996) O'zbek shoirasi. Zulfiyaxonim Isroilova 1915-yilda hunarmand-degrezchi oilasida Toshkentda tug'ilgan. Zulfiyaning oilasida ziyoli muhit hukmron bo'lib, otasi hunarmand bo'lish bilan birgalikda zamona ilmidan xabardor inson edi. Shuningdek, onasi ham oqila ayol bo'lib, o'z farzandlarini ziyoli qilib tarbiyalash va ularni komil inson bo'lib yetishtirish yo'lida harakat qilgan. 1922-yildan 1931-yilgacha maktabda, so'ng 1931 - 1934-yillar orasida qizlar bilim yurtida tahsil oldi. Mehnat faoliyatini juda erta boshlagan shoira deyarli bir umr jurnalistika va nashriyot sohasida ishladi. U 1935 - 1938- yillarda Til va adabiyot instituti aspiranti, 1938 - 1948-yillar mobaynida Bolalar nashriyoti muharriri, O'zbekiston davlat nashriyoti bo'lim mudiri, 1953- yilgacha «Saodat» jurnalida bo'lim mudiri, 1953- yildan to 1980-yilga qadar, salkam o'ttiz yil davomida, shu jurnalning bosh muharriri lavozimida ishlab keldi.

Zulfiyaxonimning o'zi keyinchalik yozishicha, uning ijodga va adabiyotga bo'lgan qiziqishida onasining roli katta bo'lgan. Oiladagi sog'lom muhit va tarbiyaning natijasida Zulfiyaxonim ziyoli inson bo'lib yetishdi. U o'rta maktabni va ayollar pedagogika bilim yurtini tamomlab, Respublika gazeta va jurnallar nashriyotida ish faoliyatini boshladi, she'riyatga qiziqib qoldi va she'rlar yoza boshladi. Uning „Men ish qizi“ deb nomlangan ilk she'ri 1931-yil 17-iyul kuni Shukur sa'dulla vositasida „Ishchi“ gazetasida bosildi. Keyingi ijod namunalari „Yangi yo'l“ jurnali va „Qizil O'zbekiston“ hamda „Yosh leninchi“ gazetalarida chop etila boshlagan. Zulfiyaxonim yoshligidan she'riyatga mehri va qiziqishi baland edi, undagi bu ishtiyoq onasining aytib bergan afsonalari, ertaklari va she'riy dostonlari ta'sirida yanada o'sdi. Bunday tarbiyaning natijasi o'laroq 17 yoshidayot uning „Hayot varaqlari“ nomli ilk she'riy to'plami omma yuzini ko'rdi. Bular — yoshlar, do'stlik, inson qalbining go'zalligi haqidagi she'rlar

edi. Soʻngra, sheʼrlari, dostonlari va hikoyalari eʼtirof qilinib, turli nashrlarda alohida kitoblar koʻrinishida chop etila boshladi.

Mashhur oʻzbek shoiri Hamid Olimjonning turmush oʻrtogʻi, oʻziga xos sheʼriyati bilan minglab kitobxonlar qalbini rom etgan isteʼdodli shoira Zulfiya 1996-yilning 1-avgustida vafot etdi. Zulfiya (taxallusi; toʻliq ism sharifi Zulfiya Isroilova) (1915.1.3— Toshkent — 1996.1.8) — shoira, jurnalist, tarjimon, jamoat arbobi. Oʻzbekiston xalq shoirasi (1965). Mehnat Qahramoni (1984). Shoir Hamid Olimjonning rafiqasi. Xotin-qizlar pedagogika bilim yurtini tugatgach (1931—34), Oʻzbekiston Fanlar qoʻmitasi qoshidagi Til va adabiyot institutining aspiranturasiga oʻqishga kirgan (1935). Soʻng Yoshlar va oʻsmirlar adabiyoti nashriyotida muharrir (1938—40), Oʻzbekiston davlat nashriyotida boʻlim mudiri (1941— 50), "Oʻzbekiston xotin-qizlari" (q. "Saodat") jurnalida boʻlim mudiri (1950—53), bosh muharrir (1954—85) boʻlib ishlagan. Uning ilk sheʼri 1931 y. da "Ishchi" gazetasida bosilgan. Dastlab 1932 y. "Hayot varaqalari" sheʼrlar toʻplami nashr etilgan. Shundan keyin uning "Temiroy" (1934), "Sheʼrlar", "Qizlar qoʻshigʻi" (1939) sheʼriy kitoblari eʼlon qilingan. Zulfiy sheʼriy ijodining porlashi "Uni Farhod der edilar" (1943), "Hijron kunlarida" (1944) va "Hulkar" (1947) toʻplamlari bilan bogʻliq.

Ayniqsa, H. Olimjonning bevaqt vafotidan keyin (1944) yozilgan, ruhiy silsilalar va qalb izzitoblari bilan toʻla sheʼrlar Zulfiya ijodida jiddiy oʻzgarishlar sodir boʻlganidan darak beradi. U shaxsiy fojiasi tasviri orqali 2-jahon urushidan katta talafot va yoʻqotishlar bilan chiqqan xalqning dard va alamlarini ifodaladi. 40-y. lar oxirida eʼlon qilingan Sovet davlatining sanʼat va adabiyot toʻgʻrisidagi qarorlari oʻzbek adabiyotiga ham katta zarar keltirdi. Zulfiya bad-bin kayfiyatlar — pessimistik kechinmalar kuychisi sifatida taʼna toshlari ostida qoldi. Shundan keyin u, boshqa qalamkash birodarlari singari, "davr gʻoyalari" ni ifodalovchi sheʼrlar yozishga oʻtdi. Lekin koʻp oʻtmay, oʻzbek ayollari hayotini yaxshi biluvchi shoira va jurnalist sifatida dugonalari haqida sheʼr va publitsistik

maqolalar yozdi, ularni ijtimoiy faollikka chaqirdi, insoniy haq-huquqlarining poymol bo'lmashligi uchun kurashdi.

50-y.larning 2-yarmida u Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik shiori ostida o'tgan harakatida faol qatnashib, jahonning ko'pgina mamlakatlarida bo'ldi. Hindiston, Misr, Yaponiya va qo'shni respublikalarga qilgan safari shoira ijodida chuqur iz qoldirdi. "Mushoira", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Qozog'iston o'lanlari", "Men chizolmagan surat" singari she'rlari Zulfiyaga shuhrat keltirdi. Zulfiya she'rlarida tasvir etilayotgan hayot ko'lami kengayib, ijodiga xorijiy xalqlar hayoti manzaralari ham kirib keldi. 70-y. lardan boshlab uning ijodidagi milliy hayot tasvirida yangi ranglar kamalagi paydo bo'ldi, haqqoniylik va his-hayajon kuchaydi. "O'ylar" (1965) she'riy guldastasi b-n boshlangan voqelikni falsafiy idrok etish tamoyili "Visol" (1972), "Yillar, yillar..." (1975) she'riy kitoblarida davom etib, shoira ijodida chinakam badiiy yuksalish davri boshlanganini namoyish etdi. U yana doston janriga qaytib, ustoz Oybekning so'nggi safariga bag'ishlangan "Quyoshli qalam" (1970) dostonini yaratdi. Ayni paytda shoira bolalarga bag'ishlangan turkum she'rlar ham yozdi ("Lolaqizg'aldoq", 1975). Zulfiya hayotining muhim bir qismini Hamid Olimjonning adabiy merosini o'rganish va nashr etish ishiga bag'ishladi.

II. ZULFIYAXONIM HAYOTIDAGI MUHIM SANALAR

1915-yil 1-mart. Toshkentning Degrez mahallasida hunarmand oilasida tug'iladi.

1931–34-yillar. Xotin-qizlar bilim yurtida o'qiydi. Adabiy to'garaklarda qatnashadi va she'rlar mashq qiladi.

1931-yil 17-iyul. Birinchi she'ri «Ishchi» gazetasida bosiladi.

1932-yil. Hamid Olimjon bilan uchrashadi.

1932-yil. «Hayot varaqalari» nomli birinchi she'rlar to'plami chop etiladi. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida o'qiydi.

1933–35-yillar. O'zbekiston Davlat nashriyotida ishlaydi.

1935–38-yillar. O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi til-adabiyot instituti aspiranturasida o'qiydi.

1938-yil. Bolalar nashriyotida muharrir.

1939-yil. «Qizlar qo'shig'i» she'riy kitobi chiqadi.

1941-yil. O'zbekiston Davlat nashriyotida adabiyot bo'limi boshlig'i.

1943-yil. «Hulkar» kitobi, «Uni Farhod der edilar» poemasi nashr etildi.

1944-yil. «Hijron kunlarida» kitobi chiqadi.

1944-yil. Hamid Olimjon vafotiga atab «Kechir, qoldim g'aflatda», «Yulduz», «Ne balolarga etding muhtalo», «Sen qaydasan, yuragim», «Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh», «Bahor keldi seni so'roqlab» she'rlarini yozadi.

1950–53-yillar. «O'zbekiston xotin-qizlari» jurnali bo'limi boshlig'i.

1950-yil. «Men tongni kuylayman» she'riy kitobi chiqadi.

1953-yil. «Dugonalar bilan suhbat» kitobi nashr etiladi. «Oydin» ocherki bosildi.

1954-yil. «Saodat» jurnalining bosh muharriri.

1958-yil. «Yuragimga yaqin kishilar» kitobi chiqadi. «Mushoira» she'ri, «Zaynab va Omon» operasi librettosi yozildi.

1965-yil. O'zbekiston xalq shoiri unvoni beriladi. «Kuylarim sizga» she'rlar to'plami, «O'ylar» adabiy maqolalari kitobi chop etiladi.

1967-yil. Neru xalqaro mukofoti laureati bo'ldi. «Quyoshli qalam» poemasini yozdi.

1970-yil. Nilufar nomli xalqaro mukofot laureati bo'ldi.

1972-yil. «Visol» she'rlar to'plami nashr etildi.

1972-yil. Bolgariya Xalq Respublikasining I-darajali Kirill va Mefodiy ordenini oldi.

1974-yil. 2 jildlik «Asarlar» to'plami chiqdi.

1975-yil. «Yillar, yillar» she'rlar kitobi chop etildi.

1976-yil. «Kamalak» she'rlar kitobi uchun Davlat mukofoti berildi. «Shalola» she'rlar kitobi chiqdi.

1984-yil. Mehnat Qahramoni unvoni berildi. Respublika Davlat mukofoti laureati bo'ldi, Hamid Olimjonning «Semurg'» dostoni asosida pyesa-ertak yozdi.

1996-yil. 81 yoshida vafot etdi.

Toshkentdagi Degrez va O'qchi mahallalarini temirchi ustalarining beshigi deyish mumkin. Qariyb yuz yildan beri bu yerda po'lat quyib, cho'yan eritib, turli xo'jalik asboblari yasaganlar. Tunuka surnaydan tortib, qo'rg'oshin to'pponchagacha, qilich-qalqondan tortib, qozon va omochgacha-hamma narsa shu yerda tayyorlangan. Ana Shu mahallada yashovchi Muslim degrezni butun Toshkent ahli bilar va hurmat qilar edi. Muslim degrezning hovlisida katta doshqozon bo'lib, unda har ikki haftada po'lat yo cho'yan eritilar, ular turli

shakllarga quyilar, so'ng qozon yo omoch shakilini olib, boshqa xonadonga kirib borar edi. Po'lat va cho'yan eritiladigan kun xuddi bayramdagidek quvonchli o'tardi.

Shunday kunlarda Muslim degrezning yonida uning besh nafar o'g'li ham turardi. Uning farzandlari ham ota kasbini egallagan, degrezlik hunariga astoydil ixlos qo'ygan kishilar edi. Muslim degrezning beshta farzandidan biri Isroil degrez edi. Isroil degrez yetti farzand ko'rди va o'z farzandlarining eng kenjasini Zulfiya deb atadi.

Zulfiyaning bolalik chog'lari ana shu ish muhitida, po'lat tafti anqigan xonadonda kechdi. Uning nazdida otasi shunday mohir degrez ediki, u hatto po'latdan qo'g'irchoq quyishi ham mumkindek tuyulardi. U doshqozon atrofida bezovta yurgan otasining ortidan ergashib, «Dada, menga qo'g'irchoq yasab bering!» deb iltimos qilardi. Ozg'ingina, qorachadan kelgan, chayir tanli otasi erigan po'latning uchqunlarini sachratib, turli asbob – anjomlar yasay ekan, xalq ertaklaridagi pahlavonlardek tuyulardi unga.

Har bir kasb-hunar kishilarining o'ziga xos fe'l-atvori bor. Degrezlar odatda kamgap, temir irodali, chayir kishilar bo'ladilar. Isroil degrezda bu fazilatlardan boshqa qator sifatlar ham bor edi. U o'z hunariga astoydil berilgan, mehri daryo, tiyrak nigohli, ilg'or qarashli kishi edi. U farzandlarini halol, mehnatsevar, xalq manfaati bilan yashaydigan kishilar qilib tarbiyaladi. Katta o'g'li Ismoil Moskvada, Sharq xalqlari universitetida tahsil olgach, mas'ul lavozimlarda ishladi. Qodir ham tashkilotchilardan biri bo'ldi. U pensiyaga chiqqunga qadar ota kasbini davom ettirib zavodda-quyuv sexida ishladi. Normat Isroilov esa 30-yillarning yirik davlat arbobi edi. Zulfiya ota-onasi va akalaridan dastlabki hayot saboqlarini oldi.

Qish oqshomlarida butun oila sandal atrofida to'planar, Xadicha xola esa she'rlar o'qir edi. U qanchadan-qancha she'rlarni yod bilar, ularni ajib bir qiroat va hayajon bilan o'qirdi. «Men Navoiy, Bedil, Fuzuliy she'rlarini birinchi marta undan eshitgan edim, - der edilar Zulfiya opa. - Men onam tufayli ularning

ko'pgina satrlarini hanuzgacha bilaman. Onam Fuzuliyning «Layli va Majnun» dostonini ayniqsa sevar edi. Bu muhabbat onamdan menga meros bo'lib o'tgan.

Lekin shunga aminmanki, mo'jizalar yaratishga qodir, jahonni ko'zga keng ochuvchi, insonni go'zallik sari yetaklovchi so'zga shaydolik hissini mening qalbimda ostonaga hatlab ko'chaga chiqmagan oddiy ayol-onam uyg'otgan...

Otam uchun ishning katta kichigi yo'q edi. Qudratli oltin qo'llar va saxiy qalbga ega edi u. Men hali-hanuzgacha otamday bo'lishni orzu qilaman, ammo, na iloj, inson qalbiga kira bilish temirga ishlov berishdan mashaqqatliroq; yurakni chaqmoq kabi alanga oldirishga har kim ham muyassar bo'lavermas ekan». (A.Akbarov, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1975y, 20-bet.)

Ko'p o'tmay, Zulfiya bilim yurtini tugatib, 1935 yilda O'zbekiston Fanlar komiteti qoshidagi Til va adabiyot institutining aspiranturasiga o'qishga kirdi. Bu yerda u o'zining nazariy bilimlarini oshirdi. Shu yillarda Til va adabiyot institutida Hamid Olimjon ham xizmat qilar edi. U Zulfiya bilan uchrashgan kezlarda uning ijodi bilan qiziqar, unga turli maslahatlar berar edi. Har bir uchrashuv ularni tobora yaqinlashtirar va bir-birlarining qalbiga muhabbat urug'larini socha boshlar edi.

1935 yil ular hayotiga baxtli sana sifatida kirib keldi. Xuddi shu yilning 23 iyulida taqdir ikki shoirning hayot rishtasini butun umrga bir-biri bilan uladi. Bu davrda Hamid Olimjon 26 yashar qirchillama yigit bo'lib, beshta she'rlar va hikoyalar kitobining muallifi, taniqli shoir, tirishqoq olim, yosh shoirlar uchun esa ustoz sifatida ham el og'ziga tushgan edi. U Zulfiya uchun turmush o'rtog'i va do'stgina emas, balki uning ijodiy taqdirida mislsiz ahamiyatga molik bo'lgan siymo ham bo'lib qoldi.

1936 yil. Tashqarida qalin qor oq gilam to'shagan. Hamid Olimjonning bolaligi tutib, Zulfiyani ko'chaga, chana uchishga taklif qildi. Chananing yo'qligi

shoir ra'yini qaytarolmadi. U paltosining barini Zulfiyaga tutqazib, oppoq ko'cha bo'ylab qiyqirib, xandon urib, uni tortdi.

Zulfiyaxonim shoir bilan birga kechgan ana shu baxtli yillarda har qanday iste'dod doimiy mehnat tufayli charxlanishi, haqiqiy san'atkor buyuk mehnat intizomiga ega bo'lishi lozimligini ko'rди. Hamid Olimjon har qanday sharoitda ham soat 6 dan 11 ga qadar uyda ijod bilan shug'ullanar, so'ng hali siyohi qurimagan asarini ovoz chiqarib o'qir va uning qanday jaranglashini tekshirib ko'rar edi.

Zulfiya o'zining har bir she'rini uning nazaridan o'tkazar, ammo Hamid Olimjon bu she'rlarga qalam urmas, balki ulardagi kuchli va kuchsiz satrlarni ko'rsatar, tushuntirar edi. Ulkan shoir, nodir insoniy fazilatlar sohibi Hamid Olimjon Zulfiyaga hamma narsada o'rnak bo'ldi. U ajoyib shoirdan fikrlashni, mehnat qilishni va she'r yozishni ham, do'stlarga mehribon, dushmanga shafqatsiz bo'lishni ham o'rgandi, uning ijodiy maktabida ta'lim oldi. Hamid Olimjon shu ma'noda Zulfiyaning qalbiga uyg'un hamrohi va sezgir maslahatchisi bo'ldi.

Barcha baxtiyor kishilar bir-birlariga o'xshaydilar. Baxtiyor inson dilnavoz oshiq yoki ma'shuqaga o'z qalbining billur tuyg'ularini nisor etadi. Zulfiya ham, Hamid Olimjon ham o'sha charag'on yillarda qalb qo'rini, mehr-muhabbat taftini bir-birlaridan sira ayamadilar. Bu, ikki shoirning o'zaro hurmat va muhabbatga asoslangan ittifoqi edi.

Bu davrda Zulfiya ijodi bahor chog'laridagi qorli cho'qqilardan endigini paydo bo'layotgan kichik bir jilg'a edi. Kunlar, oylar, yillar o'tib, bu jilg'aning ulkan bir daryoga aylanishi muqarrar edi.

Yakshanba Hamid Olimjon va uning oilasi uchun chin ma'noda hordiq va istirohat kuni edi. Shu kuni shoir qo'lga qalam olmas, ayollar og'ir ro'zg'or ishlari bilan mashg'ul bo'lmas edilar. Odatda, u barvaqt turib, Zulfiya bilan birga bozorga borar, ro'zg'or uchun kerakli mahsulotlarni obdon tanlab, xarid qilar edi. So'ngra

ko'chaga chiqib, birinchi kelgan tramvayga o'tirar, shahar tashqarisiga chiqib olardi. Bunday hamidona sayillar Zulfiyaxonimsiz o'tmas edi.

Hamid Olimjon bilan Zulfiyaning «tabiat quchog'iga» qilgan ana shunday sayyohatlaridan biri 1936 yil bahoridagi lola sayli edi. Oradan bir yil o'tgach. Hamid Olimjon o'sha sayil soniyalarini eslab, o'zining latif sherlaridan birini yozgan edi:

Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.
Shunda ko'rdi ko'zim bahorni,
Shunda qalbim tanidi yorni.
Qushlar sayrar jonimga payvast,
Men sevgining bo'yi bilan mast,
Kuni bilan dalada qoldim,
Lolazorlar ichra yoqoldim.
Quchoq-quchoq gullar terganim
Va keltirib senga berganim
Kechagiday hamon esimda
Har soniya, har on esimda.
Shundan beri tilimda oting,
Shundan beri dilimda oting.
Eng gullagan yoshlik chog'imda
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.

Hamid Olimjon 1936 yilning kuzida Qora dengiz bo'ylarida hordiq chiqaradi. Bu uning to'ydan keyingi Zulfiyasiz o'tgan birinchi safari edi. Shuning uchun ham

u serquyosh o'lkada hali tugilmagan farzandi bilan qolgan sevimli yorini tez-tez eslaydi, sog'inadi, unga bag'ishlab she'rlar yozadi.

Suyukli kishi bilan birinchi marta hamnafas bo'la olmagan Zulfiya esa g'aroyib voqealarni tush ko'radi. Uning tushida Hamid Olimjon o'z ahdidan voz kechib, boshqa bir yorni topgan, undan yuz o'girgan bo'ladi.

Zulfiyaning ana shu tushi tavsif etilgan maktubiga javoban shoir «Xayoling-la o'tadi tunlar» she'rini yozadi.

Hamid Olimjonning bu so'zlari shoir qalbining teran qatlamlaridan otilib chiqqan edi. Chindan ham u Qora dengiz bo'ylarida sevimli yor xayoli bilan yashadi.

Shoirning o'sha kezlarda yozgan she'rlarida ana shu ohang, ana shu qo'msash tuyg'usi jaranglab turadi. Hamid Olimjon yolg'iz yorninggina emas, balki hali tug'ilmagan farzandining ishqini bilan ham yashaydi. U tushida toychoqdek shirin o'g'ilning otasi bo'ladi. Uning jigarpurasi pishqirib otilayotgan to'lqinlar ustida qanotli toychoqdek parvoz qilib uning ko'zidan g'oyib bo'ladi. Shoir uning izidan qanchalik yugurmasin va och to'lqinlar orasiga kirib bormasin, u tutqich bermaydi.

Ana Shu g'aroyib tush ta'sirida Hamid Olimjon hali tug'ilmagan o'g'ilga bag'ishlangan she'rini yozadi.

Dengiz notinch edi va shu choq

Parvozingni to'lqinda ko'rdim.

Ko'zlar yondi, o'ynadi yurak.

Va izingdan, o'g'il yugurdim.

Ey, g'unchasin ochmagan bahor, -

Salom, o'g'il, sevimli farzand...

Seni kutar ota intizor,

Dunyo-dunyo sevgiga payvand...

Shoir Hamid Olimjon intizor bo'lib kutgan farzand 1937 yilning 19 yanvarida dunyoga keldi. Unga Hulkar deb ism berdilar...

1939 yillarda Hamid Olimjon qaynoq ish muhitida yashadi. Na ishdagi, na uyda uning tinimi bo'ldi. U shiddatli ish soatlaridan keyin uyga kelib ham o'sha ish iqlimidan, ish kayfiyatidan chiqib olmasdi. U nimalarnidir o'ylar, muhokama etar va ertangi kunga rejalar tuzardi. Bunday paytlarda u churq etmay, xayolan qandaydir chiqib muammolarni yechayotgandek bo'lardi.

Shunday kechalarning birida Zulfiya Hamid Olimjondan o'pkalangandek: «Hadeb jim o'tiraverasizmi? Gapirsangiz-chi biror narsani!» deya so'z qotdi. Bu so'z Hamid Olimjonga shunday ta'sir qildiki, u qanday javob berishni bilmay taraddudlanib qoldi. O'sha kuni kechasi uning ish stolida quyidagi misralar paydo bo'ldi:

«O'tirasan nega doim jim?»

Deya yana boshlading hujum.

Bilgilki, jim o'tirganimda

Otash paydo bo'lar tanimda,

Hamsuhbatim bo'lganda xayol

Jim qolaman, gap kelur malol...

1939 yil 24 avgustda Hamid Olimjon va Zulfiyaxonimlarning ikkinchi farzandlari – Omonbek dunyoga keldi. 1944 yil. Ayni saraton kunlari. Harorat benihoya baland. Havo dim. Bunday kezlarda Toshkeht qizib turgan tandirdek olov bilan nafas oladi. Shuning uchun ham bir guruh adiblar 1 iyul kuni Do'rmondagi bog'ga dam olgani chiqishdi.

Tong otib, 2 iyul kuni boshlandi. Bu har safargidek fayzli va charag'on tong edi. Nonushtadan keyin do'stlar bog'ni aylanib, sayr qilishdi. Picha dam olgach,

ariqda yosh bolalardek qiyqirib cho'milishdi. Keyin Hamid Olimjon yo'l taraddudiga tushib qoldi. U sheriklarining suvdan chiqishini hohlamaganliklariga qaramay: «Qani, yetar chiqinglar», deb turib oldi.

- Bog'ning ayni gasht qiladigan fursati yaqinlashyapti - kechki salqin tushayapti. Shoshib nima qildik. Ertaga erta bilan ketamiz, - deyishdi sheriklari.

- Bo'lmasa sizlar qolavering. Men ketaman. Bugun, albatta, qaytaman, degandim. Bormasam, xavotir olishadi - Hamid Olimjon o'z so'zida qat'iy turdi.

Hamid Olimjon oilasi usiz dasturxon atrofiga o'tirmas edi. U qayerda bo'lmasin, va'da bergan bo'lsa, oila uni sabrsizlik bilan kutar va u, albatta, uyiga aytgan vaqtida yetib borar edi.

Hamid Olimjonning ra'yini qaytarmay, uning sheriklari ham yo'lga otlandilar. Biroq undagi yo'lovchilar manzillariga eson-omon yetib borolmadilar. Ular ketayotgan mashina halokatga uchradi. 3-iyul kuni Hamid Olimjon vafot etdi.

Bundan atigi 11 oy muqaddam, 1943 yilning 4-avgustida Hamid Olimjon kenja farzandi Omonbekning tug'ilgan kunida shunday degan edi:

- Aziz do'stlar! Men to'rt yoshga to'lganimda, otamdan judo bo'lgan edim. Men uning mehr - muhabbatiga to'ymay o'sdim. Mana, bugun mening o'g'lim ham to'rt yoshga kirdi. Uning otasi va onasi bor. Ota va ona bag'rida o'sish esa farzand uchun katta baxt. Men farzandlarimizning uzoq vaqt davomida ana shunday baxtli bo'lishlari uchun qadah ko'taraman!

Taassufki, taqdir taqazosi bilan Omon ham hali besh yoshga to'lmay turib, otasiz qoldi. 1944-yilning 3-iyul kuni – orziqib kutgan baxtli kunlarni kutmay o'zbek xalqining buyuk farzandi, atoqli shoir, olim, davlat va jamiyat arbobi Hamid Olimjon olamdan o'tdi.

Zulfiyaxonim Hamid Olimjonning ushalmay qolgan orzularini amalga oshirish uchun, qilolmay qilgan ishlarini nihoyasiga yetkazish uchun kuyib-yonib yashadi. Hamid Olimjon jisman bo'lmasa-da, ruhan Zulfiyaxonim bilan birga uning she'rlarida hamnafas yashadi.

Zulfiyaxonim Hamid Olimjon boshlab bergan baxt qo'shig'ini kuylashni nihoyasiga yetkazdi. Uning bu ishlari bugungi kunda biz uchun ibratlidir (Naim Karimovning «Hamid Olimjon» kitobidan foydalanildi).

Lermontov, Vera Inber, Lesya Ukrainka, Edi Ognetsvet, Marvarid Dilboziy, Amrita Pritam asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Mustaqillik yillarida ibratli hayot kechirgan, keng ijtimoiy faoliyat olib borgan shoira Zulfiya betakror iste'dodi, Vatanga muhabbati, olijanob insoniy fazilatlari, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishdagi xizmatlari uchun yuksak hurmat va e'zozga sazovor bo'ldi. O'zbekiston hukumati atoqli shoiraning madaniyatimiz taraqqiyotidagi katta xizmatlarini e'tiborga olib 1999 yili Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etdi.

Ardoqli shoira tavalludining 100 yilligi esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 31 oktyabrdagi qarori bilan (2015) keng ko'lamda nishonlandi, chinakam adabiyot bayramiga aylanib ketdi.

III. ZULFIYAXONIM SHE'RLARIDAN NA'MUNALAR

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak hayot bergan kabi
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.

Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.

Qishning yoqasidan tutib so‘radi seni,
Ul ham yosh to‘kdi-yu, chekindi nari.

Seni izlar ekan, bo‘lib shabboda,
Sen yurgan bog,larni qidirib chiqdi.
Yozib ko‘rsatay deb husn-ko‘rkini,
Yashil yaproqlarni qidirib chiqdi.

O‘pmay, sabri tugab bo‘ron bo‘ldi-yu,
Jarliklarga olib ketdi boshini.
Farhod tog‘laridan daraging izlab,
Soylarga qulatdi tog‘ning toshini.

Qirlarga ilk chiqqan qo‘ychivonlardan
Qayda shoir, deya ayladi so‘roq.
Barida sukunat, ma’yuslik ko‘rib,
Horib-charchab keldi, toqatlari toq...

So‘ngra jilo bo‘lib kirdi yotog‘imga,
Hulkar va Omonning o‘pdi yuzidan.
Singib yosh kuydirgan za’far yonog‘imga
Sekin xabar berdi menga o‘zidan.

Lekin yotog‘imda seni topolmay,
Bir nuqtada qoldi uzoq tikilib.
Yana yel bo‘ldi-yu, kezib sarsari,
Mendan so‘ray ketdi qalbimni tilib:

"Qani men kelganda kulib qarshilab,
Qo‘shig‘i mavjlanib bir daryo oqqan?

"Baxtim bormi deya, yakkash so'roqlab"
Meni she'rga o'rab, suqlanib boqqan?

O'rik gullariga to'nmaydi nega,
Elda hilpiratib jingala sochin?
Nega men keltirgan sho'x nashidaga
Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin?

Qanday ishqqa to'lib boqardi tongga,
Kamol toptirardi keng xayolimni.
Uning rangdor, jozib qo'shig'ida
Mudom ko'rar edim o'z jamolimni.

Qani o'sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko'klamda sen parishonhol?"

Qanday javob aytay, loldir tillarim,
Baridan tutdim-u, keldim qoshingga.
U ham g'aming bilan kezdi aftoda,
Boqib turolmayin qabring toshiga.

Alamda tutoqib daraxtga ko'chdi,
Kurtakni uyg'otib so'yladi g'amnok.
Sening yoding bilan yelib beqaror,
Gullar g'unchasini etdi chok-chok.

Gul-u rayhonlarning taraldi atri,
Samoni qopladi mayin bir qo'shiq.

Bu qo'shiq naqadar oshno, yaqin,
Naqadar hayotbaxsh, otashga to'liq.

Bahorga burkangan sen sevgan elda,
Ovozing yangradi jo'shqin, zabardast.
O'lmagan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

(1945 yil)



Zulfiya va Hamid Olimjon.

1944 yil.

NE BALOGA ETDING MUBTALO

O'tdi oylar g'am bilan oqib,
Dil topmadi zarra tasallo.
Firoqingda qoldim tutoqib,
Ne baloga etding mubtalo!
Ko'z ochgani qo'ymaydi alam,
Boshim qo'ysam kuydirar bolish.

Yupatolmas kitob va qalam,
Misralarim ko'tarar nolish.
Nahot shuncha mas'um, shuncha pok
Sevishmoqda alam bor shuncha?
Bardosh bermas iroda, idrok,
Tamoman lol aql, tushuncha.
Tog'day bor deb bilgan yuragim
Qush boshicha qolmadi chog'i?
G'amni yengarman deganim sarim
Yana ortar alami, dog'i.
Erib ketmagandim sevgingdan,
Bo'lmaslik-chun baxtingdan judo,
Birga qolish uchun sen bilan
Kuyaman-u, bo'lmayman ado.



Zulfiya o'zining yangi she'rini Hamid Olimjonga o'qib bermoqda.

1944 yil.

SENSIZ

Mana, bir umrni yashadim sensiz,
Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib,
Tobuting boshida cho'kkanimda tiz,
Farzandlar ko'tardi qo'limdan tutib.
Shundan beri tikman. Har nega qalqon,

Baxtga, bahorga ham, qishga, qayg'uga.
Birov azasida yig'layman qon-qon,
To'yida yayrayman o'xshab ohuga.
Lekin qolganimda qalbim-la tanho,
Tuyg'ular zoriga solganda quloq.
O'zni zaif, chanqoq sezganda goho,
Alamdan beraman javobsiz so'roq:
Tirik ekan nega tashlab ketmading?
Mendan nafisroqning husniga oshiq,
Mendan yoniqrog'i tortmadi sani,
Edi nigohingga bor jannat ochiq,
Seni majnun etib bir yer go'zali,
Nega meni tashlab ketavermading?
Tirik ayrilishning dog'I og'irmish,
Xo'rlik kemirarmish umrni chaynab!
Bu-mudhish egovga berardim turish,
Ketsang ham menga jon tuyg'ungdan aynab.
Bilardim, qaydadir olasan nafas,
Murakkab bu dunyo sen-chun ham tirik.
Senga yot-noshudlik, tund ruhlik, qafas,
Bugungi qadaming kechadan yirik.
Nega, nega meni tashlab ketmading?
Bilaman, rashk meni etardi halok,
Afzal ko'rganingni qarg'ab o'tardim,
Izingdan yurmasdim soyaday g'amnok,
Hayotda men uchun qolarding tirik,
Qalaming mujdasin kutardim mushtoq.
Ma'yus taqdiringga yashab men sherik,
Mushkul bo'layotir shodlik yaratmoq.

Nega tirik ekan tashlab ketmading,
Tashlab ketmading-da, boshlab ketmading?!



Shoira ijod og'ushida. 1980 yil.

Hayot kitobimni bexos varaqlab,
Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.
Tabassum o'rnida kuldim charaqlab.
Suyish kerak bo'lsa - telbacha suydim.

Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob,
Yurak boyligidan qilmabman parvo.
Meni og'ushlagan hayot naq oftob,
Yangi qo'shiq talab unda har saboq.

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,
Hech kimda ko'rmayin umringa o'xshash:
Suydim,
Erkalandim,
Ayrildim,
Kuydim,
Izzat nima - bildim.
Shu-da bir yashash

Tog' ortiga o'tib ketdi kun,
Sokin cho'kdi toza, salqin tun...
Men deraza ochganim chorbog',
Sokin uxlari tun ko'rpasida.
Mayin qo'shiq yoyilar har yon,
Esib o'tgan yel sharpasida.
Suv oqadi allalab tunni,
Hamma uxlari, uyda men uyg'oq,
Parcha qog'oz, kichik bir qalam
Boshim uzra porlaydi chiroq.
Tunda qancha xayol, qancha kuy,
Men berilib quloq solaman.
So'z topolmay ifodasiga,
Rang axtarib shoshib qolaman.
Sof yel esar... Parvona uchar,
Chiroq atrofida o'rgilib,
O'zin urib part bo'ladi-yu,
Stolimga tushadi kelib.
Men yozaman, yulduzlar o'tar,
Har birisi so'ylar bir ertak.
Mana, Hulkar qarshimda chaqnar,
Yorqin tongdan keltirib darak.
Tun o'tadi, yana chorbog'dan
Ko'tarilar sahargi tuman.
Men-chi, asta chiroq so'ndirib,
O'tayotgan tongni kutaman.
Ko'zlarimda erib ketdi tun,
Yoyilmoqda yorqin juvon kun...



Zulfiyaxonim –oila bekasi.

BAHOR KELDI SENI SO'ROQLAB

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor.
Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak, hayot bergan kabi
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.
Mana qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,
Ul ham yosh to'kdi-yu, chekildi nari.
Seni izlar ekan, bo'lib shabboda,
Sen yurgan bog'larni qidirib chiqdi.
Yozib ko'rsatay deb husn-ko'rkini,
Yashil qirg'oqlarni qidirib chiqdi.
Topmay sabri tugab bo'ron bo'ldi-yu,
Jarliklarga olib ketdi boshini.
Farhod tog'laridan daraging izlab,

Soylarga qulatdi tog'ning toshini.
So'ngra jilo bo'lib kirdi yotog'imga,
Hulkar va Omonning o'pdi yuzidan.
Singib yosh kuydirgan zafar yonog'imga
Sekin xabar berdi menga o'zidan.
Lekin yotog'imda seni topolmay,
Bir nuqtada qoldi uzoq tikilib.
Yana yel bo'ldi-yu, kezib sarsari,
Mendan so'ray ketdi qalbimni tilib:
«Qani men kelganda kulib qarshilab,
Qo'shig'i mavjlanib bir daryo oqqan?
«Baxtim bormi deya», yakkash so'roqlab
Meni she'rga o'rab suqlanib boqqan?
O'rik gullariga to'nmaydi nega
Yelda hilpiratib jingala sochin?
Nega men keltirgan sho'x na'shidaga
Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin?
Qani o'sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko'klamda sen parishonhol?
Qanday javob aytay, loldir tillarim,
Baridan tutdim-u, ketdim qoshingga.
U ham gaming bilan kezdi aftoda,
Boqib turolmayin qabring toshiga.
Alamdan tutoqib daraxtga ko'chdi,
Kurtakni uyg'otib so'yladi g'amnok.
Sening yoding bilan yelib beqaror,
'Gullar g'unchasini etdi chok-chok.
Gul-u rayhonlarning taraldi atri,

Samoni qopladi mayin bir qo'shiq.
Bu qo'shiq naqadar oshno, yaqin,
Naqadar hayotbaxsh, otashga to'liq.
Bahorgi burkangan sen sevgan elda,
Ovozing yangradi jo'shqin zabardast.
O'lmagan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

IV. ZULFIYANING VATANNI TARANNUM ETUVCHI SHE'RLARI

Ona Vatanim

So'zlarning gavhari senga munosib,

O'tmishim eslayman seni aytiboq.

Ajdodlar eli bo'ldi bu makon,

Osmonda nur sochgan, ona Vatanim.

Osmoning tinch, beg'ubor o'lka,

Jannatning havosi yelib keladi.

Bag'ringda yashaymiz, tinch - totuv hamon,

Onadek mehribon, Ona Vatanim.

Madhiyangda yangrar husn jamoling,

Gerbingda humo qush, tinchlik misoli.

Osmonda bayrog'ing hilpirar mag'rur,

Yagona, muqaddas ona Vatanim.

Xar go'shangda ochilar gullar,

Bog '- u rog'laringda pishgan mevalar.

Erta bahorda sayrar bulbullar,

Dostonlarda bitilgan, Ona Vatanim.

Alloh sevgan yurtning bandalarimiz,

Kuchli, baquvvatli farzandlarimiz.

Bilimda yengilmas shoiralarmiz,

Dunyoda tengi yo‘q ,Ona Vatanim.

Prezidentimiz tashabbusi bilan barpo etilgan Hamid Olimjon va Zulfiya xiyoboni, ikki shoir nomi bilan ataluvchi o‘zbek tili va adabiyotini chuqur o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internat hamda muzey xalqimizning ardoqli farzandlariga ko‘rsatilgan ulkan ehtirom namunasi bo‘ldi.



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 23 iyundagi «Jizzax shahrida Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ona tili va adabiyoti fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internatni tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori bilan mazkur maktab-internat uchun 4 qavatli zamonaviy bino qurib bitkazildi. Bu yerda yaratilgan zamonaviy sharoitlar, 100 o‘rinli yotoqxona, oshxona, faollar zali o‘quvchilarning munosib ta’lim olishiga xizmat qiladi.

Zulfiyaxonim mukofoti

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev imzolagan farmonga asosan xotin-qizlarni Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash tizimi yanada takomillashtirilmoqda.

Endilikda mazkur davlat mukofoti Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri vakillariga ikkitadan har yili Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida ta'lim, fan adabiyot, madaniyat, san'at, sport va jamoatchilik faoliyatida alohida yutuqlarga erishgan o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan iqtidorli qizlarga berilishi e'tirof etildi.

Shuningdek, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti laureatlari bo'lgan o'quvchilari oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga, bakalavriat talabalari esa oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga tegishli yo'nalish va ixtisoslik bo'yicha kirish sinovlarisiz davlat grantlari asosida qabul qilinadigan bo'ldi.

Mukofot ilgari har bir hudud vakilasiga bittadan berilar edi. Shu bilanbirga, mukofot adabiyot, madaniyat, san'at, fan, ta'lim sohalaridagi hamda jamoatchilik faoliyatidagi alohida yutuqlari uchun 14 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan iqtidorli qizlarga berilardi.

Zulfiyaxonim mukofotini olish har qanday o'zbek qizi uchun sharaftir. Ushbu mukofot bilan taqdirlangan qizlar jamoat ishlarida faol, zukko, she'riyatga oshno, ilm-u fanda koplalab yutuqlarga erishgan qizlardir. Zulfiyaxonim qizlariga yangi nomzodlar har yili munosib taqdirlanadi. Bu mukofot qizlarga keyingi faoliyatlarida yanada ma'suliyatli bolishga undaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Zulfiyaxonim qizlariga katta imkoniyatlar berganligi ularni yanada ruhlantiradi. Ular oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga, bakalavriat talabalari esa oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga tegishli yo'nalish va ixtisoslik bo'yicha kirish sinovlarisiz davlat grantlari asosida qabul qilinadi.



ZULFIYAXONIM ZAMONDOSHLARI XOTIRASIDA

Qo‘qondagi bir uchrashuvda Zulfiya opa bilan birga bo‘ldim, Qo‘qonliklar shoiraga siyohdan sovg‘a qilishdi. Bu Nodirabegimning siyohdoni bo‘lib, ularning fikricha Nodirabegim bu siyohdonni Zulfiyaxonimga meros qoldirgandi. Ular Zulfiya opani Nodirai Davron deb atashdi va „Nodira aytolmay ketgan gaplar sizning qalamingizdan to‘kilsin“- deya lutf qilishdi”. Zulfiyaxonim o‘z davrida ham xalqimiz qalbidan chuqur o‘rin olgan shoira edi.

Bugun tongda ruhi pokingiz bilan yana bir marta gurunglashdim, Zulfiya opa. Va yana bir karra amin bo‘ldimki, o‘zbek adabiyoti XX asrda har qancha ziddiyatli, mashaqqatli va murakkab yo‘lni bosib o‘tgan bo‘lmasin, unda bir qator tom ma‘nodagi ijodkorlar etishib chiqdi. Bugungi istiqlol kunlarida ularning ijodlari yangi qirralari bilan namoyon bo‘lmoqda. Shu porloq yulduzlar ichida siz ham oldingi qatorlardasiz, Zulfiya opa!

Sizni juda sog‘indim!

(Ozod Sharafiddinov 2002-yil)

Shoirsiz yurt – bulbulsiz chaman, yulduzsiz osmon, mayoqsiz bandargoh. Shoir Bundan qirq yil muqaddam – ming to‘qqiz yuz qirq to‘rtinchi yilda O‘zbekiston Davlat nashriyoti mo‘‘jazgina bir she‘riy to‘plamni chop etdi. O‘n sakkiztagina she‘r jamlangan. «Xijron kunlarida» deb atalgan bu kitobchaning paydo bo‘lgan kuni dunyoga Zulfiya nomi bilan atalgan qismat yaraldi. Bu qismat bir qatra bo‘ldi-yu, unda zamondosh ayol qalbi o‘zining jahoniy dardi, iztirobi, faryodi bilan akslandi. Zulfiya degan ismda hijronzada yuraklarning ohi, nidosi mujassam bo‘ldi. Darhaqiqat, shoirlik unvon emas – qismat! Buning isbotini butun borlig‘i bilan, barcha ohanglari va ranglari bilan shoira Zulfiya ijodida ko‘rmoq mumkin. qaysi zamonda, qaysi yurtda yashamasin, birinchi galda o‘z qalbining holatini ayon etadi va agar bu holat minglarning, millionlarning qalbiga esh bo‘lsa shoir nidosi umumxalq, umumbashariy nidoga aylanadi. Shoirlik hamma zamonda qismat bo‘ldi.

Ey sevgisi aziz, ey sevimli yor,

Ketma, aslo ketma ko`zimdan yiroq.

Garchi tushimda ham seni bir ko`rish

Hijron kunlaridan ming bor yaxshiroq.

Bundoq mehr va sog`inch bilan to`lgan satrlarning haqiqiy bahosini bermoq uchun she`r bitilgan yillar zahmatini, fojialarini tasavvur etmoq kerak. Bu misralar judolik dardida o`rtangan necha ming yuraklarga malham bo`lganini, necha ming ko`ngil daftariga ko`chirilganini xayol qilmoq kerak.

Nega men so`zni «Hijron kunlarida» kitobidan boshladim? Axir ungacha ham Zulfiyaning «Hayot varaqlari», «She`rlar», «Qizlar qo`shig`i» singari she`riy to`plamlari nashr etilgan edi. Bu to`plamlardagi o`zining tiniq jozibasi bilan kishini rom etuvchi talay she`rlar o`sha vaqtdayoq Zulfiya ismini adabiyotga olib kirgan va mustahkam mavqe bergan edi. Biz bu kun o`sha kitoblarni varaqlab mahorat bosqichlarini poyama-poya egallab borayotgan iste`dod nafasini sezamiz, she`riyatning umidli kelajagini ko`ramiz. Lekin «Hijron kunlarida» kitobini o`qiganda biz shunga amin bo`lamizki, shoirlik iste`doddan ham, mahoratdan ham yuqoriroq tushuncha. Yaxshi she`rlar yozmoqning, hatto barkamol satrlar bitmoqning o`zi hali haqiqiy ma`nodagi shoirlik emas. Toki butun kitob va har bir misrada shoirning o`zligi, bor olami bilan qalbu idroki, dardu quvonchi, tarjimai holi va dunyoqarashi bilan she`rning egasi namoyon bo`lmas ekan, dilkashu dardkash Inson ko`rinib turmas ekan – bu hali to`la ma`nodagi she`riyat emas.

(Erkin Vohidov 1984-yil)

Zulfiya opa deganda daf`atan ko`z oldimizda turfa chechaklar bilan ziynatlangan bir chamanzor namoyon bo`ladi. Bu gulzor go`zal she`riyatning muattar bo`ylari bilan orolangandir. Fazilatlar sarchashmasida Zulfiya opaning shoiralik iqtidori turar ekan, bu iqtidor shoiramizning nomini jahonga tanitgan oliy

belgidir. Zulfiya opa suhbatlarida, maqolalarida o`zlarini g`oyatda kamtarin tutib, kam ijod qilganliklarini chiroyli bir nadomat bilan aytib turadilar. Bu gaplar chindan ham kamtarlik va samimiyat tufayli aytilgan. Lekin gap miqdorda emasligi barchamizga ayon-ku. Zulfiya she`riyatining salmog`i uning ancha murakkab yillarda ham chinakam poeziya sifatlariga sodiq qola olganligi bilan belgilanadi. Masalan, adabiyotda sxematizmga o`xshash ohanglar avj olgan yillarda Zulfiyaning Hamid Olimjon xotirasiga bag`ishlangan, chuqur insoniylik bilan sug`orilgan dardchil she`rlari yaratildi. Bu she`rlarga o`z vaqtida bir oz hadiksirab qaragan tanqidchilar ham uchragan.

Balki o`sha yillarda shundoq hollar bo`lishi tabiiydir. Lekin davr va adabiyot taraqqiyoti she`riyatimizni shonli yo`lga – Zulfiya ijodini bezab turgan she`riy turkumlar yo`liga olib chiqdi. Zulfiya opaning keyingi yillarda yaratgan she`rlarida esa falsafiylik g`oyatda teranlashib borayotir. Bu kabi fazilatlar poeziyaning o`lmasligini ta`minlaydigan noyob unsurlardir. Ijodiy safarlarda yurgan paytlarimiz, qardosh mamlakatlardagi adabiy suhbatlar chog`ida jahonning eng atoqli shoirlari bizdan Zulfiya opamiz haqida so`raganlarida, u kishiga samimiy salomlarini etkazishni iltimos qilganlarida, Zulfiya opadek ajoyib inson bilan hamyurt ekanligingdan faxrlanib ketasan kishi. Ko`plab nomdor adiblar Zulfiya opaga hurmat bilan she`r bag`ishlaganlar yoki asarlarida opaning nomlarini ko`p bora ehtirom ila zikr etganlar.

Adabiy davralarda Zulfiya opaga juda katta mehr bilan boqib, u kishini “she`riyatimiz malikasi” deb atab keladilar. Opaning hayot jasorati esa qanchadan-qancha qalamkashlar uchun go`zal va afsonaviy ijodiy mavzu bo`lib kelayotir. Bu mavzuda ko`plab she`rlar, dostonlar, hatto sahna asarlari ham yaratilgan. Adabiyot vakillariga xalqning bu qadar e`zoz-e`tibori bejiz emas. Munis, mehnatkash, mushfiq xalqimiz o`zining iste`dodli shoira qizini, hayoti sadoqat va vafo bilan yo`g`rilgan farzandini albatta ardoqlaydi-da. Zulfiya opamiz mana shu hurmat-e`zozlarga tamomila munosibdirlar.

(Abdullo Oripov 1995 –yil)

XULOSA

Zulfiyaxonim o'z she'riyati, hayot yo'li bilan o'zbek ayolining ma'naviy qiyofasini aks ettirgan, sadoqat va vafo kuychisiga aylangan xalqimizning atoqli shoirasidir. Birinchi Prezidentimiz e'tirof etganlaridek, „Uning jahon minbarlaridan yangragan she'rlari Sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she'riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan“. Zulfiya mana shunday e'tiroflarga loyiqdir. Zero, u xotin-qizlar istiqboli yo'lida kurashib kelgan jamoat arbobi, necha-necha qizning qo'lidan tutib, adabiyot dargohiga boshlab kelgan, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatgan mehribon, ammo talabchan ustoz, nozikta'b, zukko ayol, sadoqatli yor, mehribon ona edi.

Shoira o'z she'rlaridan birida shunday yozgan edi:

E'zozlar, ardog'lar uchun tashakkur,

Asli Siz – oftobim, men ziyosiman.

Tonglaringiz kulsin dorilomon, hur,

Baxtim shul – O'zbekning Zulfiyasiman!

Darhaqiqat, Zulfiya chin o'zbek qizi, O'zbekning Zulfiyasi bo'lib qalblarda mangu yashaydi, muhabbat va sadoqat kuychisi bo'lib, ishq torlarini chertib, ko'ngillar to'ridan joy egallaydi.



ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Zulfiyaxonim asarlari saylanma-2016.
2. "O'zbek adiblari" (S.Mirvaliyev, R.Shokirova, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 2016) kitobi
3. Bahor keldi seni so'roqlab: she'rlar/ Zulfiya Isroilova/Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
4. Kun.uz
5. www.ziyouz.com kutubxonasi
6. Zulfiyaxonim.uz sayti
7. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
8. Boboev.T. Adabiyotshunoslik asoslari. T. «O'zbekiston», 2002

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I. Zulfiya isroilovanning hayoti va ijodi.....	5
II. Zulfiyaxonim hayotidagi muhim sanalar.....	8
III. Zulfiyaxonim sheʼrlaridna malumotlar.....	18
IV. Zulfiyaning vatan xaqida sheʼrlari.....	27
Zulfiyaxonim zamondoshlari xotirasida.....	29
Xulosa.....	33
Adabiyotlar roʻyxati.....	37